

Mavzu: Fe'ning vazifa shakllari, o`timli va o`timsiz fe`llar, bo`lishli va bo`lishsiz fe`llar

Reja:

1. Fe'ning vazifa shakllari.
2. O`timli va o`timsiz fe`llar.
3. Bo`lishli va bo`lishsiz fe`llar.

Fe'ning vazifa shakllari

Fe'ning gap ichida kelib ,biror vazifa bajarish uchun xoslangan shakllari vazifa shakllari deyiladi.

Ular 4 ta:

1. Sof fe`l (gapda fe'l-kesim vazifasida keladi)
2. Ravishdosh (ravish kabi hol bo`lib keladi)
3. Sifatdosh(sifat singari otga bo`g`lanib aniqlovchi vazifasini bajaradi)
4. Harakat nomi (ot so`z turkumi singari ega, ot-kesim, qaratqich aniqlovchi, to`ldiruvchi bo`lib keladi)

Sof fe'l deb zamon, shaxs-son, mayl
qo`shimchasini olgan fe'llarga aytiladi:

1. Bugun bizni televizorda ko`rsatishdi.
2. Biz bundan juda mamnun bo`ldik.
3. Tutgan ro`zalarimiz dargohida qabul bo`lsin.

Ravishdosh fe`lning ravishga xoslangan shakli bo`lib, ravish singari harakat bildiruvchi so`zga bog`lanadi va uning belgisini bildirib keladi.

Ravishdosh quyidagi turlarga bo`linadi:

1. Holat ravishdoshi-harakat-holatning qay holatda bajarilishini bildiradi. Quyidagi qo`shimchalar orqali hosil bo`ladi.

Qay holda? qanday? qay vaziyatda kabi so`roqlarga javob bo`ladi:

- a) ~~-(i)b Doskaga qarab o`ting. Voqeani kulib gapirib berdi.~~
- b) –gancha Binoga angrayib qaradi.
- c) –(a)y O`qiy-o`qiy charchab uxlab qoldi.
- d) –may (-masdan) Haydovchi yo`ldan ko`z uzmay ketishi mumkin emas.

2. Payt ravishdoshlari: harakat-holatning bajarilish vaqtini bildirib, qachon? so`rog`ini oladi:

Qo`shimchalari:

- a) –gach (-kach,-qach) Ramazon kelgach, hamma o`zgacha kayfiyatga beriladi.
- b) –guncha (-kuncha,-quncha) Quyosh chiqquncha ko`p narsaga ulgurishimiz kerak.

3. Maqsad ravishdoshi: harakatning bajarilish maqsadini bildiradi, nega? nima maqsadda? so`roqlarini oladi. –gani(-kani, -qani) qo`shimchalari orqali yuzaga keladi:

Men sizni ko`rgani Qo`qondan keldim.

Mumtoz adabiyotda –gali shaklida ham qo`llaniladi:

Ko`rgali husningni zor-u mubtalo bo`ldim sango..

Sifatdosh

Fe'ning sifatga xoslangan shakli bo`lib, sifat kabi otga bog`lanadi va qanday? qanaqa? so`roqlarini oladi.

Qo`shimchalari:

- a) –gan Intilgan inson elga yoqar.
- b) –(a)yotgan Kelayotgan avtobusga chiqamiz.
- c) –(a) adigan Bo`ladigan bola boshidan ma'lum.

Sifatdoshlarda ham fe`l kabi zamon,
bo`lishsizlik, nisbat ko`rsatkichlari mavjud:

- a) O`qigan, o`qiyotgan, o`qiydigan;
- b) O`qigan, o`qimagan;
- c) O`qigan, o`qilmagan, o`qitgan.

O`timli va o`timsiz fe`llar

Harakat-holat biror obyektga o`tish-o`tmasligiga ko`ra yoki bajaruvchining o`z ustida bajarilish-bajarilmasligiga ko`ra 2 xil bo`ladi:

O`timli fe`llar- harakat boshqa obyektga o`tadi:

Xonani yaxshilab tozalang.

O`timsiz fe`llar –harakat bajaruvchining o`z ustida ro`y beradi:

Alisher o`ylanib qoldi.

O`timli fe'llar ko`pincha tushum
kelishigidagi so`zga bog`lanadi:

Choyni novvot bilan iching.

Go`dakni issiq kiyintirib yubormang.

Sochni bodom yog`I bilan massaj qiling.

Ba`zi fe'llar ham o`timli, ham o`timsiz bo`lib kela
oladi:

1. Ukam maktabda o`qiydi.

Aqli bor bola kitob o`qiydi.

2. Shoir yangi she`r to`qidi.

Buvi nabirasiga paypoq to`qidi.

Bo`lishli va bo`lishsiz fe`llar

Harakat-holat bajarilish-bajarilmasligiga kora

2 ga bo`linadi: bo`lishli, bo`lishsiz.

Bo`lishlilik maxsus qo`shimchaga ega emas:

Mavzu PPTsini ertalab tayyorladim.

Men hamma narsani sezib turaman.

Bo`lishsizlik hosil qiluvchi vositalar quyidagilar:

1. –ma qo`shimchasi bilan: Sen g`iybatchilar bilan
do`st bo`lma.
2. Emas so`zi orqali: Ko`zlarim sendan boshqaga
qaragan emas.
3. Na...na yuklamasi orqali: Na o`qiydi,na ishlaydi.
4. Yo`q so`zi vositasida: Darsga Nurillo kelgani yo`q.

5. –moqchi edi orqali: Buni o`z qo`llari bilan sizga bermoqchi edi

6. ...

- Agar bo`lishsizlik qo`shimchasi –ma yetakchi fe`lda ham, ko`makchi fe`lda ham kelsa, fe`l bo`lishli bo`ladi va ta`kid ma`nosi kuchaytiriladi:
- Masalan: Shohruh shaharga kelsa, ammasinikiga kirmay qo`ymaydi.

Xulosa

Fe`l barcha gap bo`lagi vazifasida kela oladi.

Buning uchun fe`lning vazifa shakllaridan foydalanamiz. Shuningdek, o`timli-o`timsizlik va bo`lishli-bo`lishsizlik faqat fe`lga xos ko`rsatkich sanaladi.

E`tiboringiz uchun rahmat!

Tutgan ro`zalaringiz dargohida qabul bo`lsin!

